TOSHKENT VILOYATI TURIZM SALOHIYATINING XALQARO INTEGRATSIYASI: XITOY BILAN HAMKORLIK TAJRIBASI

Tashpulatov Xurshid Baxtiyarovich
Toshkent viloyati turizm boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari
https://doi.org/10.5281/zenodo.16735215

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Toshkent viloyatining turizm salohiyatini xalqaro miqyosda rivojlantirish, xususan, Xitoy Xalq Respublikasi bilan turizm sohasida yo‘lga qo‘yilgan hamkorlik aloqalari tahlil qilinadi. Xitoyda turizm sohasining shakllanishi va bosqichma-bosqich rivojlanish jarayonlari tarixiy hamda institutsional nuqtai nazardan o‘rganilgan bo‘lib, mamlakatning sayyohlik infratuzilmasini modernizatsiya qilishga doir siyosiy va iqtisodiy chora-tadbirlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Toshkent viloyati, Xitoy Xalq Respublikasi, xalqaro hamkorlik, turizm salohiyati, turistik infratuzilma, sayyohlik targ‘iboti, madaniy almashinuv, xalqaro ko‘rgazmalar, investitsion hamkorlik, turizm marketingi.*

Аннотация. *В данной статье анализируется международное развитие туристического потенциала Ташкентской области, в частности, установившиеся кооперационные связи в сфере туризма с Китайской Народной Республикой. В историческом и институциональном аспекте изучается становление и постепенное развитие туристической сферы Китая, анализируются политические и экономические меры страны по модернизации туристической инфраструктуры.*

Ключевые слова: *Ташкентская область, Китайская Народная Республика, международное сотрудничество, туристический потенциал, туристическая инфраструктура, продвижение туризма, культурный обмен, международные выставки, инвестиционное сотрудничество, маркетинг туризма.*

Annotatsiya. *This article analyzes the international development of the tourism potential of the Tashkent region, in particular, the established cooperation relations in the field of tourism with the People's Republic of China. The formation and gradual development of the tourism sector in China are studied from a historical and institutional perspective, and the country's political and economic measures to modernize its tourism infrastructure are analyzed.*

Keywords: *Tashkent region, People's Republic of China, international cooperation, tourism potential, tourism infrastructure, tourism promotion, cultural exchange, international exhibitions, investment cooperation, tourism marketing.*

Xitoyda “Jung-o” (Jung-o) nomi bilan tanilgan, “markaziy mintaqada joylashgan” degan ma’noni anglatuvchi Xitoy Xalq Respublikasi aholi soni va sayyohlik jihatidan muhim global mavqega ega. Qolaversa, Xitoyning bepoyon hududi, betakror tabiati, madaniy boyligi, rang-barang urf-odatlari va milliy taomlari turizmning xilma-xilligi bilan uni boshqa mamlakatlardan ajratib turadi. 1950-yillarning boshida Xitoy hukumati mamlakatda sayohat qilish uchun ruxsatnomalarni liberallashtirish bo‘yicha birinchi qadamlarni qo‘ydi. Xitoy Sayohat Xizmati (China Travel Service – CTS) tashkil topganidan keyingi dastlabki to'rt yil ichida tashkil etilgan. XSXning tashkil etilishi ortidagi asosiy omil mahalliy migratsiya oqimlarini markazlashtirish, mamlakat aholisining turmush

o‘rtoqlari, do‘stlari va qarindoshlarini ziyorat qilish kabi ichki sayohatlardan kelib chiqadigan ehtiyojlarini qondirish edi.

XSXning tashkil etilishi taqqoslanadigan sayohat xizmatlarini yetkazib beruvchilarning paydo bo‘lishida o‘tish rolini o‘ynadi. Birinchi besh yillik reja 1953-yilda amalga oshirildi. Ko‘pgina xorijiy ekspertlar, asosan Sovet Ittifoqidan, Xitoy hukumatining taklifiga binoan o‘tish jarayonining samarali ishlashini ta’minlash uchun yordamchi vazifalarni bajardilar.[1]

Xitoy turizm sektorini rivojlanish tarixini to‘rt bosqichga bo‘lib o‘rganish mumkin. Birinchi bosqich 1978-1985-yillar, ikkinchi bosqich 1986-1991-yillar, uchinchi bosqich 1992-1998-yillar va to‘rtinchi bosqich 2000-yillardan keyingi davrlarni o‘z ichiga oladi.

“Madaniy inqilob” sifatida tavsiflangan birinchi davrda (1978-1985-yillar) valyuta tushumlarini yaratish nuqtai nazaridan ijobiy rivojlanish sifatida qayd etildi, biroq, sohani rivojlantirish uchun qonunchilik bazasi, huquqiy asoslar va turizm infratuzilmasi turizmdagi ishbilarmonlik faolligini ta’minlash uchun yetarli emas edi. Turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish maqsadida davlat organlari tomonidan turizmga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar va yangi qonunchilik asoslari orqali turizm bilan bog‘liq korxonalarni ochish va ularning faoliyatini amalga oshirish bo‘yicha byurokratik jarayonlarni tartibga soldi.

1979-yilda Xitoy Davlat kengashi milliy turizm bo‘yicha konferensiya o‘tkazdi. Anjumanda turizmni rivojlantirish bo‘yicha katta sa’y-harakatlar va modernizatsiya dasturlarini amalga oshirishga qaror qilindi. 1985-yilga kelib 3-5 million chet ellik sayyohni jalb qilish rejalari ishlab chiqildi. Tezlashtirilgan iqtisodiy islohotlar tufayli Xitoy va boshqa xalqlar o‘rtasida do‘stlik va o‘zaro bag‘rikenglikni rivojlantirishga qaratilgan tashqi dunyoga eshiklarni ochish siyosati amalga oshirildi.[2]

Shuningdek, birinchi bosqichda, 1981-yilda Avstraliya turizm byurosi xalqaro turizm konferensiyasini tashkil etdi, 1982-yilda Xitoy birinchi marta Jahon sayyohlik konferensiyasida ishtirok etdi, 1983-yilda Xitoy Xalqaro turizm konferensiyasini tashkil qildi va unga a’zo bo‘ldi.[3]

Ikkinchi davrda (1986-1991). Xitoy hukumati faol turizm korxonalari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini nazorat qilish va bu sohada mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha qonunchilik bazasini ishlab chiqishga kirishdi. Xitoy yirik xalqaro turizm konferensiyalarida qatnasha boshladi. 1986-yilda Xanchjouda 20 ta davlatdan sayyohlik agentliklarini jalb etgan yirik yarmarka bo‘lib o‘tdi. Shu bilan birga, Xitoy xalqaro sayyohlarni, xususan Pekin, Guanchjou, Xanchjou, Nankin, Shanxay va Tyanjinga jalb qilish uchun marketing strategiyalarini faol qo‘lladi. 1990-yillar boshida u Tinch okeani Osiyo turizm assotsiatsiyasi (PATA) a’zoligiga rasman qabul qilingan.[4] Xalqaro hamkorlik, sport tadbirlari, biznes va ijobiy kayfiyatni oshirishda muhim rol o‘ynadi. O‘n birinchi Osiyo o‘yinlari 1990-yilda Pekinda bo‘lib o‘tgan. Xalqaro Osiyo o‘yinlari Xitoyning birinchi yirik sport musobaqasi edi.

Uchinchi davrda (1992-1998) turizm siyosati xorijiy investitsiyalar hisobiga kengaytirildi, dam olish maskanlari va istirohat bog‘lari qurilishi uchun imtiyozlar berila boshlandi. Shu bilan birga, hukumat markazlashmagan turizm korxonalariga talab va taklifga asoslangan tartibga solish

[1] Cem Işık, Neslihan Serçeoğlu. İnovasyonel Turizm: Çin Örneği. Bingöl Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, C.V, No:9, 2015, ss.89-102, (Çevrimiçi) http://busbed.bingol.edu.tr/tr/download/article-file/437067 Olingan sana: 19.07.2025.
[2] K.Linn. Reform and Opening of China'sTourist Industry, Beijing, Beijing Press, 1999, p.34.
[3] Xitoy Xalq Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi hisoboti. 2017. www.mct.gov.cn/437067/download olingan sana: 20.07.2025.
[4] K.Linn. Reform and Opening of China’s Tourist Industry, Beijing, Beijing Press, 1999, pp.65-66.

orqali bozor mexanizmlaridan foydalanishga ruxsat berdi va bu korxonalar turizmni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash orqali mustahkamlandi.[5]

To‘rtinchi bosqich: 2000-yillarning boshidan boshlab turizm mamlakat iqtisodiyoti, xalqaro aloqalar va aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hal qiluvchi tarkibiy qismi sifatida e’tirof etildi. Siyosiy, ma'muriy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotdagi teng mutanosib o‘zgarishlar turizmning tez sur’atlarda yuksalishiga yordam berdi. 2008-yilgi Pekin Olimpiada o‘yinlariga mezbonlik qilishi Xitoyning xalqaro turizm sohasidagi muvaffaqiyatidan biri bo‘ldi.

Xitoyning mamlakat bo‘ylab turizmni kengaytirish, uning infratuzilmasini o‘rnatish, xalqaro miqyosda kengayish, ichki va tashqi siyosat qonunchiligini tartibga solish kabi uzoq va mashaqqatli jarayonni boshidan kechirdi. Bu jarayon davomida u asta-sekin iqtisodiy o‘sishning yangi manbaiga aylandi. Xitoyning turizm sohasidagi ilg‘or tajribasi o‘rganish, uning samarali metodlaridan milliy turizmni rivojlantirishda foydalanish juda katta samara berishi shubhasiz. Bu yo‘nalishda bugungi kunda bir qator amaliy ishlar yo‘lga qo‘yilganligini ta’kidlab o‘tish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-102-sonli Farmoni hamda 2024-yil 3-iyun kuni “Hududlarda turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 28-bayoni ijrosini ta’minlash hamda Toshkent viloyatida turizm salohiyatini oshirish, ushbu yo‘nalishda xalqaro hamkorliklarni kuchayitish maqsadida, 2025-yil 12-23-iyun kunlari Xitoy davlatining bir qator provinsiyalarida bo‘lib o‘tgan turizm tadbirlarida, xususan, 12-15-iyun kunlari Gonkong shahrida bo‘lib o‘tgan “ITE HongKong 2025”, 16-iyun Makao, 17-iyun Fuchjou, 19-iyun Uhan, 20-iyun Shenjen shaharlarida bo‘lib o‘tgan “roadshow” tadbirlarida yuqori saviyada ishtirok etdi.

Gongkong shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro ko‘rgazma doirasida chet ellik tadbirkorlar va soha mutaxassislari bilan samarali muzokaralar o‘tkazildi. Ko‘rgazma maydonida viloyatning betakror madaniy merosini aks ettiruvchi milliy liboslar, hunarmandchilik mahsulotlari namoyish etildi hamda rang-barang madaniy chiqishlar tashkil qilindi. Tashrif buyurgan xorijiy mehmonlarga viloyatning turizm salohiyati, tarixiy-me’moriy obidalari, tabiiy go‘zalliklari hamda milliy qadriyatlarini targ‘ib qiluvchi maxsus axborot materiallari xitoy va ingliz tillariga tarjima qilingan holda taqdim etildi. Shu orqali viloyatning boy sayyohlik imkoniyatlari keng namoyon qilinib, xorijlik sayyohlarni jalb etish yo‘lida muhim qadamlar qo‘yildi.

Xalqaro ko‘rgazma davomida Qozog‘iston, Belarus, Mongoliya, Nepal, Zimbabve, Pokiston, Efiopia, Tanzaniya, Yaponiya, Afg‘oniston, qolaversa Xitoyning 10 dan ortiq provinsiyalari vakillari bilan uchrashib, o‘zaro sayyohlik oqimini oshirish, targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Shu bilan birga, Toshkent viloyati delegatsiyasi a’zolari turizm sohasida o‘zaro aloqalarni yaxshilash, yangi hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish, yurtimizning boy madaniy merosini, turizm salohiyatini targ‘ib qilish maqsadida Xitoyning yirik OAV vakillari, bloger, jurnalistlar bilan bilan muzokaralar olib borib, kelajakda viloyatimizning turizm salohiyatini targ‘ib qilish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

[5] Rayile Zayit. Turizm açisindan kültürel değerlerin yeri ve önemi: Çin halk cumhuriyeti örneği. 2019. s.63.

Bundan tashqari, Toshkent viloyati delegatsiyasi Xitoy Xalq Respublikasining bir qator provinsiyalarida o‘tkazilgan **Road Show tadbirlarida** faol ishtirok etib, Toshkent viloyati turizm salohiyati Xitoyning yetakchi turizm sohasi tadbirkorlari va mutaxassislari e’tiboriga havola etdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Xitoy Xalq Respublikasining turizm sohasidagi izchil rivojlanish bosqichlari, infratuzilmaviy modernizatsiya, qonunchilik asoslarining takomillashuvi va xalqaro hamkorlikka ochiqlik siyosati global sayyohlik industriyasida ushbu mamlakatning mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, XXRda turizmni strategik iqtisodiy tarmoq sifatida shakllantirishga qaratilgan konseptual yondashuv O‘zbekiston uchun ham tajriba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Toshkent viloyati delegatsiyasining 2025-yil iyun oyida Xitoyning qator provinsiyalariga amalga oshirgan tashrifi, xususan, “ITE HongKong 2025” xalqaro ko‘rgazmasi va “roadshow” tadbirlarida faol ishtiroki, ushbu viloyatning turizm salohiyatini xalqaro darajada targ‘ib etish, shuningdek, xorijiy investorlar va soha mutaxassislari bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qildi. Tashrif davomida madaniy almashinuv, axborot materiallari bilan targ‘ibot ishlari, milliy liboslar va hunarmandchilik mahsulotlari namoyishi orqali viloyatning sayyohlik brendi ommalashtirildi.

Mazkur tadbirlar Toshkent viloyatining turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xorijiy turistlar oqimini ko‘paytirish, shuningdek, Xitoy bilan ikki tomonlama hamkorlikni institutsional darajada mustahkamlash yo‘lida muhim bosqich bo‘lib xizmat qilmoqda. Xitoyning ilg‘or tajribasidan foydalanish, xususan marketing strategiyalari, soha mutaxassislarini tayyorlash va ichki-siyosiy muvozanatni saqlagan holda tashqi hamkorlikni kengaytirish orqali Toshkent viloyati turizm salohiyatini yanada yuksaltirish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Cem Işık, Neslihan Serçeoğlu. İnovasyonel Turizm: Çin Örneği. Bingöl Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, C.V, No:9, 2015.
2. K.Linn. Reform and Opening of China'sTourist Industry, Beijing, Beijing Press, 1999.
3. Rayile Zayit. Turizm açisindan kültürel değerlerin yeri ve önemi: Çin halk cumhuriyeti örneği. 2019.

INTERNET MANBALARI

1. Xitoy Xalq Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi hisoboti. 2017. www.mct.gov.cn/437067/download